TIJORAT BANKLARIDA VALYUTA OPERATSIYALARI HISOBI VA AUDITINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

“IPOTEKA-BANK” ATB Kichik biznes bo‘limi, 1-toifali mutaxassis
SUVONQULOV JAXONGIR USMONOVICH
O’zbekiston Respublikasi
Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: *Mazkur tezisda O‘zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalari hisobi va auditini tashkil etishning nazariy masalalari o‘rganilib, ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqotda valyuta operatsiyalarini hisobga olish, ularning shaffofligini ta’minlash, risklarni boshqarish hamda nazorat mexanizmlarini zamonaviy moliyaviy tahlil va audit usullari asosida tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar*: valyuta operatsiyalari, debit,kredit ,operatsiyalar hisobi, diversifikatsiya, audit, moliyaviy barqarorlik, risklarni boshqarish, raqamli audit*

Kirish

Tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini nazorat qilish va ularning hisobini takomillashtirish tizimi bank faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, valyuta operatsiyalarining to‘g‘ri baholanishi, ularning tarkibi va tuzilmasini chuqur tahlil qilish orqali bankning daromadliligini oshirish va moliyaviy risklarni kamaytirish mumkin.

Tadqiqot predmeti esa tijorat banklarida valyuta operatsiyalari hisobini yuritish va ularni audit qilishning tashkiliy-iqtisodiy usullari, jumladan, zamonaviy tahlil va baholash instrumentlari (valyuta tushumlari ulushi,

qaytarilmagan eksport-import qarzlari darajasi, kurs farqlari bo‘yicha zaxiralar, ROA, ROE, Risk-Adjusted Performance Metrics, ichki audit tizimlari, raqamli monitoring va nazorat mexanizmlari)ni qamrab oladi. Mazkur tadqiqotda tijorat banklarida valyuta operatsiyalarining hajmi va tarkibidagi o‘zgarishlar, ularning samaradorlik darajasi, shuningdek, moliyaviy barqarorlik va rentabellikka ta’siri tahlil qilinadi. Shu bilan birga, valyuta operatsiyalari hisobi va auditini takomillashtirish orqali tijorat banklari faoliyatida qanday moliyaviy va boshqaruviy ustunliklarga erishish mumkinligi o‘rganiladi.

Tadqiqot natijalari tijorat banklarida valyuta operatsiyalarining hisobini yuritish va auditini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan yondashuvlarni shakllantirish bilan birga, ushbu sohada amaliy yechimlarni taklif etishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning dolzarbligi

Tijorat banklari moliyaviy va operatsion faoliyatni amalga oshirish jarayonida turli xarajatlarga duch keladi. Bu xarajatlar bankning moliyaviy barqarorligi va foydalilik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, valyuta operatsiyalarining samarali boshqarilishi ham bank faoliyatida muhim omil hisoblanadi. Valyuta operatsiyalarini hisobga olishdagi xatolar, kurs farqlarini noto‘g‘ri aks ettirish yoki tashqi iqtisodiy bitimlarning o‘z vaqtida bajarilmasligi natijasida bank moliyaviy hisobotlarining ishonchliligi pasayishi mumkin.

Valyuta operatsiyalaridagi nomuvofiqliklar — bu operatsiyalar bo‘yicha haqiqiy qiymatning kamayishi, kutilayotgan tushumlarning pasayishi yoki yo‘qolib ketish holatlari bilan bog‘liq. Bunday nomuvofiqliklar bir qator sabablarga ko‘ra yuzaga keladi: eksport-import shartnomalarining bajarilmasligi, kontragentlarning moliyaviy qobiliyati yomonlashishi, tashqi bozorlarda kurs tebranishlari, moliya bozorlaridagi beqarorlik yoki valyuta

nazoratidagi kamchiliklar. Ushbu holatlar bankning umumiy valyuta portfeli qiymatini pasaytiradi, kapital yetarliligini zaiflashtiradi va operatsiyalar rentabelligini kamaytiradi.

Valyuta operatsiyalari — bu tijorat bankining tashqi iqtisodiy faoliyatini ta’minlovchi, moliyaviy resurslar va iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi asosiy tarkibiy qism bo‘lib, ular bankning daromad keltiruvchi va operatsion faoliyatini amalga oshirishda muhim vositalar majmuasini tashkil etadi. Iqtisodiy mazmunda valyuta operatsiyalari nafaqat balansda aks etuvchi moddiy va moliyaviy resurslarni, balki bankning intellektual kapitali, texnologik infratuzilmasi va xalqaro xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini ham qamrab oladi. Nazariy jihatdan qaralganda, valyuta operatsiyalarida yuzaga keladigan risklar — bu kurs tebranishlari, qaytarilmagan tashqi qarzlar yoki moliyaviy bozor sharoitidagi salbiy omillar ta’sirida operatsiyalarning real qiymati pasayishini anglatadi. Shu bois, valyuta operatsiyalaridan samarali foydalanish deganda mavjud resurslardan eng yuqori daromad olish, kurs risklarini maqbul darajada boshqarish va likvidlikni ta’minlash orqali bankning umumiy moliyaviy samaradorligini oshirish tushuniladi.

Valyuta operatsiyalari — bu tijorat bankining tashqi iqtisodiy faoliyatini ta’minlovchi, moliyaviy resurslar va iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi asosiy tarkibiy qism bo‘lib, ular bankning daromad keltiruvchi va operatsion faoliyatini amalga oshirishda muhim vositalar majmuasini tashkil etadi.

Tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini balans hisobida ko‘rinishi

№	Operatsiya mazmuni	Aktiv (Debet)	Passiv (Kredit)
1	Mijozdan xorijiy valyutada pul qabul qilindi	10100 – Kassa	20200 – Mijoz hisobv.

2	Import shartnomasi bo‘yicha to‘lov	16100 – Nostro	20200 – Mijoz hisobv.
3	Bank xorijiy valyuta sotib oldi	16100 – Nostro	20200 – Mijoz hisobv.
4	Xorijiy bankdan kredit mablag‘lari olindi	10100 – Kassa	30100 – Qarzdorlik
5	Mijozga kredit berildi (xorijiy val.)	20200 – Mijoz hisobv.	30100 – Qarzdorlik
6	Foiz daromadi hisoblandi	20200 – Mijoz hisobv.	60200 – Foiz daromad
7	Valyuta kursi farqi (ijobiy)	16100 – Nostro	60100 – Kurs farqi
8	Valyuta kursi farqi (salbiy)	70100 – Kurs farqi	16100 – Nostro

Manba:Muallif tomonidan tadqiqotlar asosida tuzilgan

Tijorat banklari moliyaviy tizimning eng muhim bo‘g‘inlaridan biri bo‘lib, ularning faoliyatida valyuta operatsiyalarini to‘g‘ri va samarali hisobga olish hamda auditini olib borish iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Xalqaro moliyaviy bozorlar bilan integratsiya jarayonida O‘zbekiston tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini yuritish amaliyotini takomillashtirish davlat moliya tizimining mustahkamlanishiga ham xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan Jadval bank aktivlari va passivlarining xalqaro amaliyotda qo‘llaniladigan ikki tomonlama yozuv prinsipi asosida qanday aks ettirilishini aniq ko‘rsatib beradi. Jadvalda berilgan har bir operatsiya mazmuni valyuta hisobining turli bosqichlarini qamrab oladi. Xususan, mijozlardan xorijiy valyutada mablag‘ qabul qilinganda bankning kassa mablag‘lari yoki nostro hisobvaraqlarida aktivlar ko‘payadi, shu bilan birga mijozlarning xorijiy valyutadagi hisobvaraqlarida ham shuncha miqdorda

majburiyat paydo bo‘ladi. Bu holat bank balansida aktiv va passivlarning bir vaqtda ortishiga olib kelib, tijorat bankining joriy likvidliligini oshiradi.



Xulosa va Taklif

Tijorat banklarida valyuta operatsiyalari tuzilmasi va boshqaruv shakllari. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, amaldagi tasniflarda valyuta operatsiyalari odatda iqtisodiy belgilar — xalqaro to‘lovlar, kreditlash, investitsiyalar va boshqa hisob-kitoblar kesimida ko‘rib chiqiladi. Biroq ularni likvidlik darajalari (yuqori likvidli, likvidli, nolikvid) va risk markazlari bo‘yicha chuqur tahlil qilish yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Bu esa valyuta operatsiyalarining auditida risklarni aniq baholash va strategik qarorlar qabul qilish jarayonida to‘liq manzaraning shakllanishiga to‘sqinlik qiladi.

Banklarda valyuta operatsiyalari auditi samarali faoliyat yuritish va xatarlarni boshqarishning muhim qismi hisoblanadi. Ushbu tezisda banklarda valyuta operatsiyalari auditi jarayonini takomillashtirish uchun xalqaro standartlar va zamonaviy texnologik yondashuvlarni joriy etishning ahamiyati ko‘rsatib o‘tildi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro standartlardan foydalanish banklarning valyuta operatsiyalarida xatarlarni kamaytirish va operatsiyalarni shaffof amalga oshirish uchun zaruriy omil bo‘lib, audit sifatini

oshirishda katta imkoniyat yaratadi. Biroq, milliy qonunchilik talablari va mavjud amaliyot xalqaro talablardan ba’zi jihatlarda orqada qolayotgani aniqlangan. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish va xorijiy tajribadan kengroq foydalanish talab etiladi. Shuningdek, audit jarayonida sun’iy intellekt va blokcheyn kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish xatolarni aniqlash va tezkorlikni oshirish imkoniyatini beradi.

Tavsiyalar. ALM va RBAM modellarini to‘liq joriy etish. Valyuta aktivlarini risk va likvidlik darajalari bo‘yicha chuqur tahlil qilish bank balansida yuqori konsentratsiyaga ega bo‘lgan qisqa muddatli yoki nolikvid operatsiyalarni aniqlash imkonini beradi. Ularni diversifikatsiya qilish orqali xalqaro hisob-kitoblar va kreditlash jarayonida samaradorlikni oshirish mumkin. Byudjetlashtirish va KPI tizimlarini integratsiya qilish. ROA, ROE, NIM hamda valyuta operatsiyalari aylanish tezligi kabi asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini muntazam nazorat qilish va ularni byudjetlashtirish tizimi bilan uyg‘unlashtirish zarur. Bu bankning valyuta resurslaridan foydalanish samaradorligini kompleks baholash hamda rahbarlar va ijrochilar faoliyatini aniq natijalar bilan bog‘lash imkonini beradi. Valyuta operatsiyalarini boshqarishda raqamlashtirishni kuchaytirish. Moliyaviy monitoringni, xalqaro hisob-kitoblar jarayonini va valyuta aktivlari tarkibini tahlil qilishni raqamlashtirish zarur. IT-infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda analitik platformalardan foydalanish orqali valyuta operatsiyalarini real vaqt rejimida kuzatish, kurs tebranishlari va xalqaro risklarni tezkor boshqarish imkoniyati yaratiladi. Ichki auditning rolini kuchaytirish. Ichki va tashqi audit jarayonlarida ALM va KPI ko‘rsatkichlaridan foydalanish xalqaro hisob-kitoblarda risklarni aniqroq baholashga yordam beradi. Bu nafaqat moliyaviy

shaffoflikni ta’minlaydi, balki valyuta operatsiyalari bo‘yicha hisob siyosatini takomillashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Q.H.Berdiyev. Hususiy Kapitalning buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirish masalalari / Monografiya. Qarshi. “Intellekt” nashriyoti, 2023.-146 bet.
2. Ahmed, R. (2021). Risk Analysis in Commercial Banking. Journal of Financial Auditing, 27(4), pp. 120–135.
3. Kyiu, A. va Tawiah, V. (2025). IFRS 9 implementation and bank risk. Accounting Forum, 49(1), 234-258.
4. Bley, J., Saad, M. va Samet, A. (2019). Auditor choice and bank risk taking. International Review of Financial Analysis, 61, 37-52.
5. Hoelscher, J., Reed, B.J. va Sierra, G.E. (2019). The effect of insured liabilities on the demand for external audits: The case of privately-held United States banks. J. of Corporate Accounting & Finance, 30(3), 8-19.
6. Buxgalteriya hisobi: Darslik / A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov; — T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. 624 b.
7. Karaliyev T.M., Qurbonov R.B., Rustamov M.S. Banklarda buxgalteriya hisobi (Matn|: o ‘quv qo‘llanma / T.M. Karaliyev, R.B. Qurbonov, M.S. Rustamov. -Toshkent: «ZEBO PRINT», 2021. - 344 b.
8. Z.A.Umarov. Banklarda buxgalteriya hisobi (darslik). --T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», nashriyoti 2021, 612 b.